

Toshkent shahrida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-aprel oylarida, Toshkent shahrida jami 20 402,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 118,7% ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Toshkent sh.	20 402,8	118,7
Bektemir	646,6	173,4
Mirzo Ulug'bek	2 104,5	100,5
Mirobod	1 527,0	113,4
Olmazor	1 130,1	107,3
Sergeli	573,9	109,2
Uchtepa	653,0	105,0
Chilonzor	1 138,3	119,0
Shayxontoxur	1 410,7	136,7
Yunusobod	2 528,2	133,0
Yakkasaroy	1 854,6	149,9
Yangihayot	382,2	123,4
Yashnobod	1 450,3	110,9
Taqsimlanmagan hajim	5 003,6	113,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025-yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 63,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,3 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,5 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 17,8 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	3 068,1	1 838,9	1 444,9
<i>o'sish sur'ati, %</i>	107,0	107,0	107,0
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	7 420,1	1 927,1	2 185,8
<i>o'sish sur'ati, %</i>	107,0	107,0	107,0
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	2 517,9	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	108,6	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 6 351,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 164,2 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 8,6 % ga ko'payib, 31,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 56,5 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil etgan holda 11 532,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 12,3 % ni yoki 2 517,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 112,5 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd. so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Toshkent sh.	6 351,9	11 532,9	2 517,9	164,2	104,1	112,5
Bektemir	456,3	140,1	50,2	3,9 m.	62,3	161,5
Mirzo Ulug'bek	312,5	1 663,4	128,6	71,2	110,3	87,1
Mirobod	602,5	768,5	155,9	170,5	84,0	2,0 m.
Olmazor	324,9	742,6	62,6	130,3	102,5	78,3
Sergeli	54,2	376,4	143,3	45,8	121,5	147,9
Uchtepa	114,1	400,5	138,4	72,3	102,5	191,1
Chilonzor	304,9	777,2	56,2	2,2 m.	104,8	72,2
Shayxontoxur	873,7	466,5	70,5	139,3	136,9	109,7
Yunusobod	1 270,3	1 178,0	79,9	180,1	108,3	73,2
Yakkasaroy	852,1	929,1	73,4	4,4 m.	95,2	105,6
Yangihayot	109,9	181,5	90,7	143,4	118,0	114,2
Yashnobod	206,1	1 165,5	78,7	191,0	105,7	80,8
Taqsimlanmagan hajim	870,4	2 743,8	1 389,4	148,2	105,4	112,4

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Yakkasaroy tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 4,4 m.), Bektemir tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 3,9 m.), Chilonzor tumanida (2,2 m.) va Yashnobod (2024-yilning mos davriga nisbatan 191,0 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Shayxontohur tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 136,9 %), Sergeli tumani (121,5 %) va Yangihayot (118,0 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Toshkent shahri Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M.Sabirova
71 203-88-18 (3522)

Manzil:

